



KONSTITUTSIYA – INSON FAROVONLIGINI VA JAMIYATNING BARQAROR RIVOJLANISHINING HUQUQIY KAFOLATI

Rustamova Madinabonu Akbarovna

O`zMu Xorijiy filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Tel: (97) 015-03-07

el.pochta: rustamovamadi3.07.2005@gmail.com

Annotatsiya: Konstitutsiya har bir davlatning asosiy qonuni bólib, u inson huquqlari va erkinlikni himoya qilish, davlat tuzilishini belgilashini ta'minlash uchun asos yaratdi. Ushbu maqolada inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishi

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, qonun, davlat, barqaror rivojlanish, jamiyat

Аннотация: Конституция является основным законом каждой страны, она создала основу для защиты прав и свобод человека, определения устройства государства. В данной статье говорится о важности конституции для благополучия человека и устойчивого развития общества.

Ключевые слова: Конституция, права человека, право, государство, устойчивое развитие, общество

Abstract: The constitution is the basic law of every state, it created the basis for the protection of human rights and freedom, and for determining the structure of the state. This article talks about the importance of constitution for human well-being and sustainable development of society.

Key words: Constitution, human rights, law, state, sustainable development, society.



Konstitutsiya insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi, masalan so'z erkinlikni, din erkinlikni, ta'lim olish huquqlari va boshqalar. Bu huquqlar inson farovonligining asosini tashkil etadi. Har bir mustaqil davlat o'z taraqqiyot yo'lini belgilar ekan, eng avvalo konstitutsiyaviy asoslarga tayanadi. Ushbu muhim hujjatda xalq farovonligi yo'lidagi oliy maqsad va vazifalar o'z aksini topadi. Zero, Konstitutsiya – davlatning huquqiy poydevori bo'lib, unda jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi asosiy tamoyil va qoidalar mujassamlashgan. Aynan shu hujjat orqali davlat o'z fuqarolarining farovon hayot kechirishi, huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, ijtimoiy adolat tamoyillarining ustuvorligini ta'minlashga intiladi. Aynan Konstitutsiya inson huquqlarini eng oliy qadriyat sifatida inson qadr-qimmati hamma narsadan ustun ekanligini e'tirof etadi.

Bu yil 8 dekabr kunini xalqimiz Yangi O'zbekiston taraqqiyotining mustahkam huquqiy asosini shakllantirish va ustuvor yo'nalishlarini qonuniy mustahkamlash maqsadida qabul qilingan Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini ilk bor nishonlamoqda. Bosh qomusimizda moddalar soni 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi.

Konstitutsiyamizning avvalgi tahriridan farqli o'laroq, uning yangi tahririning asosiy g'oyasi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlash, ilgari mavjud bo'lgan “davlat — jamiyat — shaxs” paradigmasini yangi: “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga o'zgartirishdan iborat. Davlatimiz rahbari ta'rifiga ko'ra, inson qadri — mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayot, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta'lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog'lom ekologik muhit ta'minlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi.

Konstitutsiyamizda inson huquqlari va erkinliklarini to'liq va samarali amalga oshirish hamda kafolatlashga tizimli yondashildi. Avvalo, O'zbekistonning besh ustuni, ya'ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi.



Konstitutsiyamizga asosan O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilandi. Inson huquqlariga oid normalar soni 3,5 barobardan ziyodga ko'paygani fikrimizning yaqqol dalilidir.

O'tgan davr mobaynida mamlakatda keng ko'lamli va kompleks tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mamlakatimizning bu yo'nalishdagi tajribasi xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etildi. Avvalambor, Barqaror rivojlanish maqsadlari va bu boradagi tegishli vazifalar nafaqat yangi tahrirdagi Konstitutsiyada, balki 360 dan ziyod qonun va boshqa huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Qayd etish zarurki, barqaror rivojlanish tamoyili Konstitutsiyamizda ilk bor aks ettirildi. Xususan, 14-moddada davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirishi ko'rsatilgan. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Hech shubhasiz, tom ma'noda xalqchil qomus bo'lgan Asosiy qonunimiz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarimiz ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi". Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz barqaror taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va xalqimizning qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish kabi qator ezgu g'oyalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Prezidentining shu yil sentyabr oyidagi Farmoni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ham qabul qilindi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi mamlakatning barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan va O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Unda turli sohalardagi islohotlar, iqtisodiy o'sish, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarining takomillashtirilishi, ekologik barqarorlikni ta'minlash va davlat boshqaruvini zamonaviylashtirish kabi maqsadlar ko'zda tutilgan. Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning:

Birinchidan, mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi;

Ikkinchidan, to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi;



Uchinchidan, yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishiga taalluqli konstitutsiyaviy normalar mustahkamlab qo'yildi. Eski tahrirdagi matnda Konstitutsiya normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashga doir ushbu mexanizmlar mavjud emasdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e'tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilganini ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O'zbekiston o'zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi. Konstitutsiya inson farovonligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini uchun zarur bo'lgan huquqiy asosni yaratdi va davlatning barcha fuqarolari uchun adolatli va barqaror hayot sharoitlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/m14363>
2. <https://parliament.gov.uz/articles/562#>
3. https://uza.uz/oz/posts/konstitutsiya-barqaror-rivojlanishning-huquqiy-asosi_546130
4. https://constitution.uz/oz/pages/Konstitutsiya_mustahkam_kafolat
5. https://strategy.uz/index.php?static=strategy_actions&lang=uz
6. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m11846>